

Islom taraqqiyot banki Boshqaruvchilari kengashining navbatdagi yig'ilishi

Toshkent shahrida 2021-yil 2 – 4-sentyabr kunlari bo'lib o'tgan Islom taraqqiyot banki Boshqaruvchilari kengashining navbatdagi 46-yillik yig'ilishi doirasida "ITB Transformatorlari jamg'armasining ko'magida ertangi kun innovatsiyalari namoyishi" tadbiri bo'lib o'tdi. ITB bu tadbirni tez rivojlanayotgan dunyo hamjamiyatida fan, texnologiyalar va innovatsiyalarni ijtimoiy va iqtisodiy o'sishning katalizatori sifatida e'tirof qilgan holda, tajribalar almashuvi va yangi aloqalarni yo'lga qo'yish "Javob berish, tiklash, qayta tiklash: hammaga COVID dan keyingi barqarorlik va gullab-yashnash" mavzusida tashkillashtirdi. Bu tadbir ITB Transformatorlari jamg'armasining roliga bag'ishlangan edi, Transformatorlar jamg'armasi, Engage platformasi, Innovatsion kraudfanding platformasi va IP ekosistemasi yordamida butun dunyo ishbilarmonlarini qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalar ko'lamini oshirish, ertangi kun innovatsiyalarini namoyish qilish va fikrlar rivoji uchun mos muhit yaratishga bag'ishlandi.



Unda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya instituti direktori o'rinosi Shahlo Miralimova ham ishtiroy etdi. Sh.Miralimova tadbir qatnashchilariga Islom Taraqqiyot banki tomonidan g'oyadan uni amalga oshirishgacha moliyalashtirilgan va Transformatorlar jamg'armasi tomonidan yutuqlar jarayonining namunali modeli deb e'tirof etilgan "O'zbekistonda yangi probiotiklarni ishlab chiqarish" mavzusidagi loyihasini namoyish qildi.

